

BOZOR IQTISODIYOTI NIMA VA UNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI QANDAY NAMOYON BO’LADI?

Abduxoliqov I.F

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xususiy huquq fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillarini tushunish va uning zaif va ijobiy sifatlarini anglab yetish aynan ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar haqidagi bilimlarni boyitishda va ularni bir-birlaridan farqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kundalik hayotda ko’p duch keladigan “Bozor iqtisodiyoti”ning tushunchasi haqida ma’lumotga ega bo’lish ham iqtisodiyot sohasidagi bilimlarni keng to’ldirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tayanch tushunchalar: bozor iqtisodiyoti, ma’muriy buyruqbozlik, ishlab chiqarish, talab, taklif.

Ma’lumki, bugungi kunda ko’plab davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi bozor iqtisodiyotiga asoslangan. Bu iqtisodiy tizim orqali eng avvalo iste’molchilarning manfaatlari kafolatlanadi, ishlab chiqaruvchilar uchun juda qulay sharoit vujudga keladi va boshqa afzalliklarni yaratadi. Dunyo iqtisodiyot tarixi davrida ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning 4 turiga guvoh bo’ldi, ularning ijobiy va salbiy ta’sirlarini o’rgandi. Ma’muriy buyruqbozlik tizimidan so’ng bozor iqtisodiyoti davri boshlandi. Xo’sh, bozor iqtisodiyoti o’zi nima? Uning asosiy go’yasi nima va u qanday ishlaydi? Biz bu tushuncha haqida ko’p eshitgamiz ammo, oarmizda ko’pchilik bozor iqtisodiyoti haqida juda kam bilishadi yoki umuman xabarlarini yo’q.

Har bir davlat o’z ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarini belgilab oladi va iqtisodiy siyosatni amalga oshiradi. Iqtisodiy siyosatni qanday tamoyillariga asoslanishini aynan iqtisodiy tizimlar belgilab beradi. Har bir iqtisodiy tizimning o’z hukmronlik qilgan davri bo’lgan. Buni oddiy misol tariqasida Sobiq Sover Ittifoqi davrida mavjud bo’lgan iqtisodiy tizim-ma’muriy buyruqbozlikni keltirishimiz mumkin. Iqtisodiy tizimlar orasida eng yoshi va ko’pchilik iqtisodchilar tomonidan ma’qullangan, shuningdek qolgan tizimlarga nisbatan samarali hisoblangan tizim hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti insoniyat taraqqiyotida mavjud bo’lgan eng progressiv va istiqbolli tizimdir.

Bozor iqtisodiyotida iste’molchilarning huquqlari va manfaatlari kafolatlanadi va himoya qilinadi. Bunday ijobiy sifatga uning raqobatga asoslanganligi, iqtisodiy faoliyatda va tadbirkorlikda erkinlik hamda bozor mexanizmlaridan foydalanish ta’sir ko’rsatadi. To’liqroq tushunchaga ega bo’lish uchun jarayonga kirib borish zarur. Davlat tadbirkorlarga erkinlik bag’ishlaydi va xususiy mulkchilik sharoitini yaratib ularni himoya qiladi. Tadbirkorlar esa ishlab chiqargan mahsulotlarini bozorga olib

chiqib,ularni xaridorlarga taklif qiladi. Foyda olish maqsadida tadbirkorlar iste'molchilar tomonidan ularning mahsulotlarini sotib olishga bo'lgan ishtiyoqini,ya'ni talabini oshirish uchun asosan sifat va narx vositasida boshqa ishlab chiqaruvchilar bilan raqobatga kirishadi. Natijada,iste'mochilarning o'z talablarini arzon va sifatli mahsulotlar bilan qondirish uchun sharoit yuzaga keladi. Bozordagi taklifga ta'sir etuvchi asosiy ta'sir etuvchilar o'rnida iste'molchilar tomonidan mahsulotlarni sotib olish uchun kerakli bo'lgan pul,talabi taklifni mutanosib shakllantirishiga guvoh bo'lish mumkin. Tushunarli qilib aytanda,tadbirkor mahsulotiga har qanday narxni belgilay olmaydi.Chunki bunga bozordagi talab qonuni va raqobatning o'zi yo'l qo'ymaydi. Tadbirkor iste'molchilarning talablariga moslashishi kerak bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotining ko'plab ijobiy tomonlari bo'lib,ular bozorda iste'molchilar uchun qanday foyda keltirishi bilan birga hattoki iqtisodiyotning bosh muammosini yengillashtirishga hissa qo'shishi bilan belgilanadi. Biz uning iste'molchilar manfaatlariga qanday xizmat ko'satishiga guvoh bo'ldik,endi esa ishlab chiqarish jarayonidagi afzalliklariga to'xtalib o'atmiz. Bozor iqtisodiyotida tadbirkor o'z manfaati yo'lidi harakat qiladi va xarajatlarni qanday qisqartirish yo'li bilan birgalikda qanday foyda olish yo'llari haqida bosh qotiradi. Bu yo'llar va vositalar tadbirkorlarning ishlab chiqarish jarayonidagi harakatlarida ko'p kuzatiladi,ular mahsulot ishlab chiqarish jarayonida xarajatlarni maksimal qisqartitib optimal foyda olish,ishlab chiqarishning samarali yo'larini ishlab chiqarish yoki keraksiz mahsulotlar,hattoki chiqindilardan ham foydanlanib yangi mahsulot ishlab chiqarishda namoyon bo'ladi. Bu harakatlar iqtisodiyotning bosh muammosni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadbirkor iste'molchilarni o'rganib kim uchun ishlab chiqarish kerak ekanligini bilani,talabni hisobga olib nima ishlab chiqarish kerak ekanligini anglaydi va ko'proq foyda olish uchun ishlab chiqarishining yangi istiqbolli yo'llarini kashf etishga harakat qiladi.

Ko'plab ijobiy sifatlariga qaramay bozor iqtisodiyotining ham o'ziga xos kamchiliklari bor bo'lib,odatda bu kamchiliklar uning tanqidchilari tomonidan tez-tez esga olib turiladi. Ko'pincha bozor iqtisodiyotiga “shavqatsiz ijtimoiy-iqtisodiy tizim” sifatida ham qarashadi. Bunga sabab uning qator kamchiliklari mavjudligidir. Ularga misol qilib bozor iqtisodiyotida tabaqalanishning kuchayishini keltirib o'tish mumkin. Ma'muriy buyurqbozlik tizimi tabaqalashuv jarayoniga yo'l qo'ymaydi,xususiy mulkchilikni rad etadi va barcha uchun teng sharoit yaratishni ta'minlashga harakat qiladi. Aynan buning teskarisi bo'lgan bozor iqtisodiyotida daromadlar tengsizligining kuchayishi va aholining mulkiy tabaqalanishiga olib keladi. Bozor iqtisodiyotining raqobat kuchsizlanishiga yo'l qo'yishi,ya'ni korxonalarining qo'shilib ketishi,shafqatsiz raqobat muhiti hamda texnika taraqqiyoti bozor iqtisodiyoting samarali raqobat muhitini buzadi. Bunday iqtisodiyot o'zining bosh

nazorat mexanizmi raqobatning tugashiga yo'l qo'yadi va hattoki buni rag'batlantiradi. Shu o'rinda bozor iqtisodiyoti tizimida atrof-muhitga, ekologiya va tabiat ham aziyat chekadi buni ham ijtimoiy-iqtisodiy tizimning zaif tomonlari qatoriga kiritish lozim. . Ba'zida ishlab chiqaruvchi daromadini oshirish uchun tabiatdan resurslarni olishda shafqatsizlikka yo'l qo'yadi.

Bozor iqtisodiyotini o'rganish iqtisodiy siyosat va tizimlar haqidagi bilimarni boyitish bilan birgalikda, ularning afzalliklari va dunyo iqtisodiyotining nega bu nuqtada to'xtaganligini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ijtimoiy-iqtisodiy tizim oddiy va juda samarali go'yalarga asoslanganligiga yuqoidagi misollar bilan guvoh bo'ldik. Bunday tashqari mukammal tizim bo'lmasligi, bozor iqtisodiyotining ham qator kamchiliklari va zaif tomonlari borligiga asoslantirilgan fikrlar bor. Uning yana qanday qirralarini bor ekanligini bilish uchun men bilimsevar do'stlarimga qolgan barcha iqtisodiy tizimlar haqida o'rganishni maslahat bergan bo'lardim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.Tojiboyeva. "Iqtisodiyot nazariyasi". Toshkent. 2005-yil, 240-250-betlar.
2. A.O'lmasov, A.Vahobov. "Iqtisodiyot nazariyasi". Toshkent. 2014, 89-91-betlar.
3. G'ulomov va boshqalar. "Iqtisodiyot ilmi asoslari". Toshkent. 2002-yil, 1-2-qismlar.